O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKAUNIVERSITETI

# Zamonaviy ta’lim va ma’naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari

**mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi**

## M A T E R I A L L A R I

**2024 yil 17-oktyabr**

**“Zamonaviy ta’lim va ma’naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi.**
**Toshkent.: 2024 yil. 17-oktyabr.**

Mazkur to‘plamda respublikamiz OTM professor-o‘qituvchilarining ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash: kecha va bugungi xolati, Tarbiya fani o’qituvchisini tayorlashning huquqiy-me’yoriy asoslari, ta’lim muassasalarida Tarbiya fani o’qituvchisini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, ta’lim-tarbiya jarayonida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik va psixologik jihatlariga doir qarashlari va taklif-mulohazalar o‘z aksini topgan. Mazkur to‘plam materiallaridan ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, talabalar va sohaga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.


**Mas’ul muharrir: F.O. Mirzaeva** – Pedagogika kafedrasi mudiri, dotsent
**Tahrir hay’ati a’zolari:**
Pedagogika fanlari doktori professor - **Sh.Shodmonova**
Pedagogika fanlari doktori professor - **A.Muxsiyeva**

**Taqrizchilar:**
**M.B.Urazova** – pedagogika fanlari doktori professor
**M.T.Mirsoliyeva** – pedagogika fanlari doktori, dotsent
Sahifalovchi - **G.X. Narzullayeva** - 1-kurs magistranti.

*Anjuman materiallari Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy Kengashining 2024 yil 17-oktyabrdagi 4 – sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.*



**To‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi, stilistik va orfigrafik xatolar uchun mualliflar mas’ul.**

2. Nargiza Musayeva. The role of students in providing the health of the future generation. International Journal of Pedagogics p. 58-61. 2023

3. Н.С Мусаева, Н.А Толибова Мактабгача таълим муассасаларида инклюзив таълимни ривожлантириш муҳим омил сифатида. International Conference on Developments in Education Hosted from Delhi, India https: econferencezone.org 24 th Mart. 2023

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIMIY JARAYONLARNI REJALASHTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Ilmiy rahbar: Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
**Saidqulova Gavhar Odiljon qizi**
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
**Odilbekova Ruzanna Quvondiq qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid ilmiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, mazkur jarayonga innovatsion yondashuvlarni takomillashtirish maqsadida unda tarbiyachilarning kompitensiyaviy xususiyatlari,bolalarning individualligiga qaratilgan masalalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya,yondashiv,rejalashtirish,kompitensiya,individual ta'lim.

Bugungi jadallik bilan rivojlanayotgan barcha mamlakatlar singari yurtimiz ham yoshlarning ilmiy-amaliy qobiliyatlari,iste'dodlari,ichki imkoniyatlarini,har bir shaxsga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish va ularning samaradorligini oshirish maqsadida tendensiyalar ishlab chiqilmoqda. Yosh avlodni yetuk shaxs va jamiyatga kerakli malakali kadrlar etib tarbiyalash uzluksiz ta'limning bosh maqsadi hisoblanadi. Ushbu jarayonni optimallashtirish va samarali tashkil etish,oz vaqt davomida kerakli bilimlarni berish hamda innovatsion yondashuvlar qo'llash asosida natijaga erishish bugungi davr talabidir. Zero farzandlari bilimli,dunyoqarashi keng va o'zining fuqorolik pozitsiyasida turgan yurt egalarining qadr-qimmati yuqori bo'ladi.

Ta'lim tarayonini samarali tashkil etish maqsadida innovatsion yondashuvlarni qo'llash ularni takomillashtirish va bugungi kundagi dunyo mamlakatlarining tajribalarini o'rganish hamda amaliyotga tadbiq etish orqali kutilgan natijalarga erishish mumkin.Ushbu vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tizimida bir qator huquqiy normativ hujjatlar,qaror va farmoyishlar ishlab chiqilmoqda.

Respublikamizda 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son ''O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish'' konseptsiyasi,PQ-3955-

son 30-sentabr 2018 yildagi ‘‘Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’ Prezident qarori, ‘‘Takomillashtirilgan ilk qadam’’ davlat dasturi shu kabi qator qarorlar va tizimdagi islohotlar maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan.

So’ngi yillarda xorij tajribalaridan ko’rish mumkinki texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida maktabgacha ta’limni isloh qilish,bolalarga zamonaviy bilim berish,ta’lim tarbiya jarayoniga innovatsion yondashishda tarbiyachilarning kompitensiyaviy xususiyatlarini,bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda axborotlarni bolalarga singdirish hal qilish kerak bo’lgan muammo hisoblanadi.

V.G.Suxodolskiy ta'kidlashicha, o'qituvchining kasbiy vakolati bu "fundamental ilmiy ta'limga va pedagogik faoliyatga hissiy-qiymatli munosabat asosida lavozim talablari bilan belgilanadigan kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyati". Bu kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan munosabat va shaxsiy fazilatlarga, nazariy bilimlarga, kasbiy mahoratga ega bo'lishni o'z ichiga oladi.[21]

Kompetensiya (lot.competo-erishyapman, munosibman, loyiqman) –u yoki bu sohadagi yillar davomida egallangan bilimlar,orttirilgan tajriba mahsuli.Bugungi kun tarbiyachisiga qo’yiladigan talablar:

- O’z bilimlarini muntazam ravishda oshirib borish
- Zamonaviy yangiliklarda xabardor bo’lish
- Egallangan malakalarni doimiy ravishda takomillashtirish
- Tashabbuskorlik va mustaqil faoliyat olib bora olish
- Mustaqil erkin fikrga ega bo’lish
- AKT va o’qitish texnologiyalaridan qo’llay olishi
- Tanqidiy fikr yurita olish va o’z ustida tinimsiz ishlash va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki zamonaviy bilimlar va kasbiy xususiyatlarga ega bo’lish davr talabi. Kompitensiya quyidagi turlarga bo’linadi:

1. Shaxsiy kompitensiya
2. Umummadaniy kompitensiya
3. Kasbiy kompitensiya
4. Maxsus kompitensiya

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim,malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o’zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o’rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni

qayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo’ladi:
- murakkab jarayonlarda;

- noaniq vazifalarni bajarishda;

- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;

- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo’la olishda.[22]

Kasbiy kompitensiyalarni shakllantirish va takomillashtirish uchun bo‘lajak pedagoglardan tinimsiz harakar o’z ustlarida ishlash talab etiladi.

Ta’lim tashkilotida tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashishda tarbiyachini quyidagi kompitensiyalarga ega bo’lishi muhim sanaladi:

- ✓ Aktdan foydalana olishi zamonaviy taqdimotlar va ishlanmalar ishlab chiqa olishi
- ✓ Kommunikativ qobiliyatlarining shakllanganligi
- ✓ Yangi bilimlarni doimiy ravishda o’rganib turish
- ✓ Kreativ yondashishga urinish
- ✓ O’z vaqtida va kamchiliklarsiz ish hujjatlarini yuritish va boshqalar

Individual yondashuv bu bola shaxsining alohida belgi xususiyatlarini hisobga olgan holda unga ta’lim berish sanaladi.Bola shaxsining ijobiy xususiyatlari va hatti harakatlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish mustahkamlashga qaratilgan jarayon.Ommaviy tarzda taqdim etilgan axborot va bilimlarni anglay olmagan va yetarlicha egallay olmagan bolalarga ularning individual xususiyatlarini hisobga olib ta’lim berish turi. Individual yondashuv bu pedagogik jarayonning bir qismi hisoblanadi. Masalan bazi bolalar faqat eshitgan gaplarini eslab qoladi,bazilar ko’rganini, boshqalari esa eshitib ko’rib amalda qo’llab ko’rgan ma’lumotlarini eslab qoladi.Bundan tashqari Sxema diogramma turli xildagi chizmalar orqali ham eslab qolishi mumkin bo’lgan bolalar mavjud.Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib tarbiyachi pedagog umumlashtirilgan faoliyat olib borishi lozim.

Bunda u quyidagilarga amal qilishi lozim:

- Faoliyat jarayoni faqat gapirib berishdan iborat bo’lmasligi lozim
- Bolalar bilan savol javob o’tkazish kuzatish uchun ekskursiyalar uyushtirish
- Sxemali va animatsion tarzda axborotlarni berish
- Bola kayfiyatini ham hisobga olish
- Giper aktiv bolalarga ularning aktivligini biroz pasaytiruvchi topshiriqlar berish
- Giper passiv bolalarga esa harakatga undovchi tezkorlik bilan bajariluvchi topshiriqlar berish

---
l

- O’yinlar va enerjayzerlarda foydalanish
- Bir xil o’yin yoki texnologiyalardan kamroq foydalanish bir xillikdan qochish

Xulosa qilib aytganda tarbiyachining kompitensiyaviy xususiyatlarining shaklanganligi va bolalarga individual xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim berish zamonaviy innovatsion yondashuvlarda biri hisoblanadi.Ularning turi va qo’llanilish doirasi juda keng. Inson kapitali hamda jamiyat va davlatning iqtisodiy yutuqlari chambarchas bogʻliqdir. Faylasuf, jamiyatshunos va antropolog Valeriy Xan nima uchun pedagogik ta’lim sifati Oʻzbekistonning innovatsion taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egaligi toʻgʻrisida fikr yuritadi.[23]

Ushbu o’zaro aloqador bo’lgan bu ikki komponentni to’liq anglab yetish orqali ta’lim samarasining oshishiga erish mumkin.Mehnat bozorida raqobatbarchosh kadr tayyorlashimiz mumkin. Kelajagimiz xavfsizligining kaliti innovatsion iqtisodiyot ekanligi barchaga ma’lum. Men ilgari ham bilimga asoslangan innovatsion iqtisodiyotning oʻziga xos xususiyati, uning nisbatan qisqa davr ichida katta oʻzgarishlarga erishib, samarali va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishi mumkinligi haqida soʻz yuritganman. Bu esa «quvib yuruvchi» iqtisodiyotlar qatoridan ilgʻor iqtisodiyotga oʻtishni anglatadi. Innovatsiyalar va dinamik innovatsion iqtisodiyotning asosiy drayveri esa sifatli ta’lim olgan, yaratuvchan va muvaffaqiyatga intiluvchi inson kapitali hisoblanadi. Buning uchun mamlakatda sifatli ta’lim tizimi va kuchli ilm-fan maktabi boʻlishi lozim.[24] Tarbiyachi pedagog bolani o’z kuchi va bilimiga ishonishga,ichki imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalashi,ilk davrlardanoq kasbga yo’naltirishi,vatanga faxr va iftixor ruhini tarbiyalashi,bolani kamsitmasdan tenglik asosida bilimlarni berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PQ-3955-son 30-sentabr 2018 yildagi ‘‘Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida’’ Prezident qarori

2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: Oʻzbekiston, 2017.

3. Sh. Sodiqova Maktabgacha pedagogika. Tafakkur bo’stoni Toshkent-2013.

4. www.pedagog.uz.

5.www.istedot.uz

6.www.ziyonet.uz

| | |
|---|---|
| “MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TASNIFI'' | |
| Karimova Sarvinoz Po'latovna, Ergasheva Feruza Muzaffar qizi<br>MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDABOLALARNI MUSIQIY TARBIYALASH VA TA’LIM BERISH | 768 |
| Narimbayeva Lola Kuzibayevna, Ilesova Lazzat Asan qizi<br>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O'YIN FAOLIYATI ORQALI KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI | 770 |
| Saidqulova Gavhar Odiljon qizi, Jo’rayeva Manzura Akmal qizi<br>MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOSHQARUVNI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI | 774 |
| Narimbaeva Lola Kuzibayevna, Jumamurodova Shohzoda Ilhom qizi<br>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 777 |
| Karimova Sarvinoz Po'latovna, Madraimova Asal Baxrom qizi<br>YOSH AVLODNING MUSIQIY ESTETIKASINJ OSHIRISH XUSUSIDA | 779 |
| Karimova Sarvinoz Po'latovna, Mamadismanova Sabrina Axmadjon qizi<br>OILA, TA’LIM MUASSASASI VA IJTIMOIY BORLIQDA O’SIB KELAYOTGAN AVLODNI SHAKLLANTIRUVCHI MUHIM IJTIMOIY INSTITUTLAR SIFATIDA | 782 |
| Muhiddinova Dilfuza Sherdor qizi, Raxmonqulova Anora<br>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA RIVOJLANTIRUVCHI O‘YIN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA REFLEKSIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH | 787 |
| Muhiddinova Dilfuza Sherdor qizi, Xasanova Ruxshona Farxodovna<br>PEDAGOGLARNING AKT (Axborot kommunikatsiya texnologiyalari) SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR | 790 |
| Narimbayeva Lola Kuzibayevna, Masharifova Rayhona Abdulakimovna<br>BOLALARNING TEATRLASHTIRILGAN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ORQALI MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHI | 793 |
| Narimbaeva Lola Kuzibayevna, Musaeva Gulmira Muxammadali Kizi<br>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINING SHAKLLANISHI | 797 |
| Каримова Сарвиноз Пулатовна, Носиржонова Марина Дилкащбек<br>МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ КЎЗИ ОЖИЗ БОЛАЛАРНИ МУСИҚИЙ КЎНИКМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ | 800 |
| Saidqulova Gavhar Odiljon qizi, Odilbekova Ruzanna Quvondiq qizi<br>MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIMIY JARAYONLARNI REJALASHTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV | 802 |
| Kodirova Muyassar Eshmamat qizi, Ziyodullayeva Sabrina Sunnatullo qizi<br>MAKTABGACHA TA’LİM TARBİYA: KECHA VA BUGUN VA ERTA MİSOLİDA | 806 |
| Kodirova Muyassar Eshmamat qizi<br>GIPERAKTIVLIKNING MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY VA FIZIOLOGIK SABABLARGA KO‘RA KELIB CHIQISHI VA TASNIFLANISHI | 810 |
| Narimbayeva Lola Kuzibayevna, Rustambekova Aynissa Ravshan qizi<br>TEATR FAOLIYATI ORQALI BOLALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNING RIVOJLANTIRIISH | 816 |
| Saidqulova Gavhar Odiljon qizi, Sultanova Sarvinoz Muzaffar qizi<br>MAKTABGACHA TA’LIMDA MUSIQA TARBIYASI | 819 |
| Saidqulova Gavhar Odiljon qizi<br>PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARI MAKTABGACHA TA’LIM TALABALARI O’RTASIDA MUSIQA O’QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MEHANIZMLARI | 821 |
| Shariyeva Gavxar Turavoyevna, Salimboyeva Shoista San’atjon qizi<br>BOLA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLA TILINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI | 825 |
| Tursunboyeva Zuxra Umid qizi<br>MAKTABGACHA YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARNI ATROF –OLAM BILAN TANISHTIRISH USLUBLARI | 827 |
| Xolmatova Salima Kuziboyevna, Bahtiyarova Ro’za Oybek qizi, Jamaliddinova Gulsanam Zokirjon qizi<br>DIDAKTIK O’YINLARNING MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING AQLIY RIVOJLANTIRISHDAGIAHAMIYATI | 832 |

| | |
|---|---|
| **Xolmatova Salima Kuziboyevna, Xasanova Ruhshona Farhodovna, Kenjabayevna Nafisa G'ayratovna**<br>**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SANASH FAOLIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI** | **835** |
| **Xolmatova Salima Kuziboyevna, Rahmonqulova Anora Orifjon qizi, Xolmurodova Gulshoda Zafarovna**<br>**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI ELEMENTAR MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI** | **839** |
| **Xolmatova Salima Kuziboyevna, Olimova Zamira Mingyasharovna, Jiyanova Gulzira Normuminovna**<br>**INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING MUSTAQIL TA'LIM ISHLARINI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI** | **842** |
| **Xolmatova Salima Kuziboyevna, Sholpanova Aygerim Marxabayevna**<br>**TALABALAR MUSTAQIL TA'LIM ISHLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI** | **847** |
| **Shariyeva Gavxar Turavoyevna, Yulchiyeva Navro'za Alisher qizi**<br>**MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI** | **851** |
| **Maripova Nodira Xamidovna, Akromaliyeva Madina Jaxongir qizi**<br>**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA TEATR SAHNALASHTIRISHNING TA'LIM-TARBIYAVIY AHAMIYATI** | **855** |
| **Xurvalieva Tarmiza Latiovna, Xursanova Fotima Orifjonovna, Xamrayeva Zuhra**<br>**MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUH BOLALARNI SAVODGA O'RGATISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH** | **858** |
| **Xurvalieva Tarmiza Latiovna, Ulasheva Dilara Botir qizi**<br>**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLATIRISHNING TASHKILIY PEDAGOGIK VA METODIK JIHATLARI** | **861** |